

O'ZBEK LUG'ATCHILIGI TARIXI. LUG'ATCHILIK AN'ANASINING KEYINGI DAVRLARDAGI TARAQQIYOTI. ALISHER NAVOIY ASARLARIGA TUZILGAN LUG'ATLAR

Xudoyberganova Asila Azizbek qizi

SamDUKF Pedagogika va tillarni óqitish fakulteti

FT 21_13-guruh II bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mahmadiyev.Sh

Annotation. Ushbu maqolada o'zbek lug'atchiligi haqida dastlabki ma'lumotlar,lug'at turlari, keyingi davrlardagi lug'atlar lug'atchilik an'anasining bosqichma-bosqich taraqqiyoti,o'zbek tiliga oid ilk lug'atlar, lug'atchilikning o'zbek tili tarixidagi o'rni , lug'atchilikka doir asarlar, lug'atchilikning o'rganilishi, Alisher Navoiyning asarlariga bag'ishlangan lug'atlar haqida ma'lumotlar yoritilgan

Kalit so'zlar: lug'atchilik, lug'atchilikka oid asarlar, lug'atchilik an'anasi, lug'atchilik taraqqiyoti, Alisher Navoiy, lug'atchilik tarixi

KIRISH

O'zbek lug'ati tarixi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. SHu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. Mahmud Zamaxshariy o'zining «Asos ul-balogs'a», «Muqaddimat ul-adab» asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy lug'atning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish 15-asrdan keyingi davrda bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: «Abushqa» (16-a., Turkiya) izohli lug'ati, Tole Imoni Hiraviyning «Badoye ul-lug'at», Muhammad Rizo Xoksorning «Muntaxab ul-lug'ot», Mirzo Mahdiyxonning «Sangloh», shuningdek, Muhammad YOqub CHingiyning «Kelurnoma», «Sulaymon Buxoriyiiig «Lug'ati chig'atoiy va turki usmoniy» («CHig'atoycha-turkcha lug'at»), Ishoqxon Ibratning «Lug'ati sitta as-sina» («Olti tilli lug'at») kabi lug'atlarini ko'rsatish mumkin. 19-asrning oxiri va 20-asrning 1-choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'at rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi. M.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884—1912 y.lar mobaynida bir necha marta nashr etilgan «Russko-sartovskiy i sartovsko-russkiy slovarъ» («Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug'at»), Ashurali Zohiriy tomonidan 1927 y.da tuzilib, nashr ettirilgan 2 jildli «Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at» keyingi davrlarda O'zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug'atlar uchun asos bo'ldi. Hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o'zbekchani qiyoslovchi

ko‘plab tarjima lug‘atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod bir, ikki va uch tilli terminologik lug‘atlar yaratildi. O‘zbek xalqi tarixida birinchi marta «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» tuzilib, nashr etildi (1981). 20-asrda o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma’rufov, SH.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va b. munosib hissa qo‘shdilar. Respublika mustaqilligi tufayli o‘zbek lug‘ati oldiga yangi davr talablariga javob beradigan entsiklopedik va lingvistik lug‘atlar yaratish vazifasi qo‘yilgan va bu vazifa o‘z o‘rnini bilan amalga oshirilmoqda.

Lug‘at va uning tuzilishi, turlari.

LUG‘AT — 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va b.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma’nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma’lumotlar jamlangan kitob. Lug‘atlar ma’naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, ularda jamiyatning ma’lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o‘quvchiga muayyan hodisa haqida ma’lumot beradi; uni o‘z va o‘zga tillardagi so‘zlar bilan tanishtirada; tilni, uning lug‘at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Lug‘atlar juda qadim davrlarda paydo bo‘lgan, hozirgi davrda ma’lumot-axborot to‘plash va uni o‘quvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega.

So‘zni tavsiflashdagi bir qancha farqli xususiyatlariga ko‘ra, lug‘atlarni asosan 2 turga: entsiklopedik va lingvistik (filologik) lug‘atlarga ajratish mumkin. Entsiklopedik lug‘at so‘zlarning o‘zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi. Lingvistik lug‘atlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan so‘zning ma’nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Lingvistik lug‘atlar leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usullari nuqtai nazaridan bir qancha turlarga bo‘linadi:

1. So‘zlarning ma’nolari, qo‘llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatic xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘at (S. I. Ojegov. Tolkoviy slovarъ russkogo yazyika, 20-e izd., M., 1988; O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-2-j.lar, M., 1982).
2. Muayyan tilga o‘zlashgan, lekin o‘zlashmaligi sezilib turgan boshqa til so‘z va terminlarini tushuntirib beruvchi x o r i j i y so‘zlar lug‘ati (Slovarъ inostrannix slov, 18-e izd., M., 1989; O. Usmon, R. Doniyorov. Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati, -T., 1965).
3. Bir tilga oid lug‘aviy birliklarni boshqa tilga o‘girib izohlab beruvchi tarjima lug‘atlari — o‘zbek leksikografiyasida keng tarqalgan, qadimdan ma’lum lug‘at turi, 19-a.gacha arab-o‘zbek, fors-o‘zbek, turk-o‘zbek ikki tilliligiga asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lug‘atlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 20-a.da ular

qatoriga mazkur tillar bilan birga ingliz, nemis, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lug‘atlar ham qo‘schildi [Nemischa-o‘zbekcha lug‘at, 1964; O‘zbekcha-nemischa lug‘at, 1967; Frantsuzcha-o‘zbekcha lug‘at, 1973; Ingлизcha-o‘zbekcha lug‘at, 1968; O‘zbekcha-inglizcha lug‘at, 1969; Arabcha-o‘zbekcha lug‘at 1986 O‘zbekcha-forscha lug‘at, 1984; Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at (A. Zohiriy 1927), 1 j.li Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, M. 1954; 5 j.li Ruscha-o‘zbekcha lug‘at; 1950-55; 1 j.li O‘zbekcha-ruscha lug‘at (M. 1959; T., 1988); 2 j.li Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, 1983—84 va b.].

4. So‘zlarning qachondan bosholab shu tilda qo‘llana boshlagani, uning fonetik, grammatik, semantik belgilari taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi tarixiy lug‘at (o‘zbek tilida haqiqiy ma’nodagi tarixiy lug‘at tuzilmagan, lekin E. Fozilovning «Старо-узбекский язык: Хорезмские памятники XIV века» (ch. 1-2, T., 1966, 1971) asarini ma’lum ma’noda tarixiy lug‘at deyish mumkin).
5. Tilning lahja va shevalariga xos bo‘lgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi so‘zlardan farq qiladigan so‘zlarni ko‘rsatuvchi dialektal (sheva) lug‘atlar (O‘zbek xalq shevalari lug‘ati, 1971).
6. So‘zning kelib chiqishini ko‘rsatib beruvchi etimologik lug‘atlar (Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, 2000).
7. Bir oilaga mansub tillardagi so‘z boyligini solishtirib, ulardagi tafovut qonuniyatlarini o‘rganish maqsadida tuziluvchi qiyosiy lug‘atlar (lug‘at Budagov. Sravnitel’niy slovarь turetsko-tatarskix narechiy, ch. 1—2, S.-Pb., 1869; V. V. Radlov. Opit slovarya tyurskix narechiy: 1—4. S—Pb., 1888—1911).
8. So‘zlarning mavjud imlo qoidalariga binoan to‘g‘ri yozilish shakllarini qayd etuvchi imlo lug‘at i (1929 y.dan hozirgacha o‘zbek tilining turli hajmli 20 dan ortiq imlo lug‘ati tuzilgan; 65000 so‘z va so‘z shaklini qamrab olgan eng mukammal imlo lug‘ati 1975 y. nashr etilgan).
9. So‘zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladigan talaffuz (orfoepik) lug‘ati (O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati — M. Sodiqova, O‘. Usmonova, 1977; O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati, 1984);
10. So‘zlarning morfem tuzilishini ko‘rsatuvchi morfem lug‘at (A.G‘ulomov va b. O‘zbek tilining morfem lug‘ati, 1977).
11. So‘zligi frazeologik birliklardan iborat bo‘lgan frazeologik lug‘at (M. Sodiqova. Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at, 1972; Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati 1978).
12. So‘zlarning qo‘llanish miqdori va foizi haqida ma’lumot beruvchi chastotali lug‘at (I.A.Kissen. Slovarь naibolee upotrebitel’nyx sovsovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika, 1972).
13. So‘zlar teskari tomondan bo‘lgan alifbo tartibiga ko‘ra joylashtirilgan ters (chappa) lug‘at (R.Qo‘ng‘urov va A. Tixonov. O‘zbek tilining chappa lug‘ati, 1968).

14. So‘zlikni tarkib toptiruvchi so‘zlar ro‘yxati ma’lum mavzularga bo‘lib beriladigan tematik (mavzuli) lug‘at (A.Tixonov va b. Russko-uzbekskiy tematicheskiy slovarь, 1975).
15. So‘zliklari omonim, sinonim, antonim, paronim singari lug‘aviy birliklardan iborat bo‘lgan omonimlar lug‘ati, sinonimlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, paronimlar lug‘ati (SH. Rahmatullayev. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati, 1984; A. Hojiyev.O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, 1974; SH. Rahmatullayev va b. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati, 1980; A. Ma’rufov. Paronimlar lug‘ati, 1974).
16. So‘zligi atoqli otlar yoki joy nomlaridan iborat bo‘lgan antroponimik va toponimik lug‘atlar (E. Begmatov. O‘zbek ismlari, 1991; E.Begmatov. O‘zbek ismlari ma’nosи. 14600 ism izohi, 1998; 3. Do‘simov va X. Egamov. Joy nomlarining izohli lug‘ati, 1977).
17. Ma’lum bir yozuvchi yoki asar tilida qo‘llangan so‘zlarni izohlovchi. lug‘at (Navoiy asarlari lug‘ati, 1972; Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, 1—4.ar, 1983—84; B.Hasanov, «Qur’oni Karim» so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lug‘ati, 1995).
18. So‘zligi ma’lum bir fan va texnika tarmog‘i, ijtimoiy yoki xo‘jalik hayotining biror sohasiga oid so‘z-terminlardan iborat bo‘ladigan terminologik lug‘atlar. Bunday lug‘atlar so‘zlikning berilishi va izohlanishiga ko‘ra, entsiklopedik lug‘at bilan lingvistik lug‘at belgilariga ega bo‘ladi (1925 y.dan hozirgi kungacha O‘zbekistonda 50 dan ortiq soha bo‘yicha 140 taga yaqin terminologik lug‘at nashr etilgan; ular soha terminologiyalarini tartibga solishga xizmat qiladi).

Lug‘at turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Yuqorida, asosan, o‘zbek lug‘atchiligidagi mavjud bo‘lgan va amalda foydalanib kelinayotgan lug‘at turlarigina ko‘rsatildi. Bu narsa lug‘atlarning vazifa doirasi naqadar kengligini va ularning o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy asarlariiga tuzilgan lug‘atlar haqida.

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bunday uzoq va juda boy leksikografik an’ananing mavjud bo‘lishi juda nodir hodisadir. Hatto, rang-barang lug‘atlarga boy bo‘lgan arab va fors leksikografiyasi tarixida xam ma’lum adib yoki bir necha adiblar asarlari asosida tuzilgan bunday lug‘atlar mavjud emas. Navoiy asarlariiga tuzilgan lug‘atlar sirasiga quyidagi lug‘atlar kiradi:

Tole Imoni Hiraviyning "Badoye ul-lug‘at" (XV asr) nomli chig‘atoycha-forscha lug‘ati.

"Abushqa" nomi bilan mashhur bo‘lgan chig‘atoycha-turkcha izohli lug‘at (XVI asr), Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" deb nomlangan o‘zbekcha-forscha lug‘ati (XVII asr),

Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab ul-lug‘ot" nomli izohli lug‘ati (XVIII asr),

Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh" nomli chig‘atoycha-forscha lug‘ati (XVIII asr) ("Lug‘ati atrakiya", "Xulosayi Abbosi"lar Sangloh"ning qisqa varianti)

Sulaymon Buxoriyning "Lug‘ati chig‘atoiy va turki usmoniy" (XIX asr) («Chig‘atoycha-turkcha lug‘at») kabi va boshqa lug‘atlar shu jumladandir.

"Abushqa". Bundan 450 yil muqaddam ilgari tuzilgan birinchi o‘zbek tilining izohli lug‘ati fanda «Abushqa» nomi bilan atalgan yodgorlik katta ahamiyatga ega. Ushbu lug‘atning fanda o‘ndan ortiq nusxalari ma’lum bo‘lib, ularning eng qadimgi nusxalari chet el xazinalarida.

Lug‘atning 1552 yilda kitobat qilingan Vena nusxasidan foto ko‘chirma olingan edi. Endi Tehron nusxasidan ham ko‘chirma olindi.

Fotonusxadan ma’lum bo‘ladiki, qo‘lyozma to‘liq va yaxshi saqlangan. Lug‘at yirik nasta’liq xatida yozilgan. Hajmi 201 varaq, ya’ni 402 betdan iborat. Har bir betda to‘rttadan sakkiztagacha so‘z misollar bilan izohlangan. Lug‘atning bu nusxasi Tehrondagi Malak kutubxonasida «Farhangi devoni Alisher Navoiy» nomli qo‘lyozma tarkibida saqlanmoqda. Hozirgacha bu lug‘at muallifi noma’lum edi. Vena va Tehron nusxalarini solishtirish natijasida uning muallifi Turk olimi Mustafo Binni Sodiq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ammo uning tartib berilgan yili hali ham noma’lum. Hozircha lug‘atning bizga ma’lum eng qadimgi Vena shahridagi nusxasi 1552 yilgi tarixga ega. Lug‘atda so‘z ma’nosи, asosan, 2 xil usulda ochib berilgan. Birinchi usulda lug‘atshunos so‘z ma’nosini bir so‘z bilan lo‘nda ifodalaydi. Chunonchi ko‘kumtul so‘zi ko‘m - ko‘k deb izohlangan. II usulda so‘z ma’nosini tushuntirish yo‘li bilan ochib berilgan:

qirov - qirag‘u demakdurki, savuq ayyomda gecha ila havodan yera dushar, yeri ag‘arduri.

“Badoyi - al - lug‘at”. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi qomus «Badoyi - al - lug‘at» hisoblanadi. U Husayn Boyqaro farmoni bilan 1500 yillarda tuzilgan. Hozircha lug‘atning ikki nusxasi ma’lum. Biri Eronda, Sipohsolar kutubxonasida, ikkinchisi Sankt - Peterburg xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Lug‘atning Sankt - Peterburg shahridagi qo‘lyozmasi 1750 yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 1960 yilda A.K.Borovkov tomonidan nashr qilingan.

Olim kitobni nashrga tayyorlashda eng muhim so‘zlarning fonetik tuzilishiga oid nodir ma’lumotlarni negadir tushirib qoldirgan. Natijada lug‘at boshqa nodir yodgorliklar qatori oddiy transkripsiyada berilgan. Ushbu lug‘atda XV asr vokalizmi va konsonantizmi - eski o‘zbek alifbosi maxsus atamalar orqali yaxshi ochib berilgan. Lug‘at muallifi Toli Imomiy Hiraviy eski o‘zbek tilidagi unli tovushlarni ko‘rsatish uchun butun mahoratini ishga solgan. Natijada u tilda mavjud bo‘lgan 14 unli tovush 26 ta undoshning har birini aniq ko‘rsatgan aks etgan.

Lug‘atshunos lug‘at tuzishda o‘rta asr qomuschiligining eng yaxshi an’analaridan foydalangan. Har bir so‘z haqida uch xil ma’lumot qoldirilgan: 1) so‘zning tovush

tuzilishi; 2) uning ma’nosи; 3) grammatik xususiyati. Grammatik izohdan sung etimologik izoh o‘rin oladi. Masalan, "Badoyi al-lug‘at" da adash so‘zining etimologiyasi haqida gapirib, aslida addash bo‘lgani, keyinchalik bir "dol" tushib qolganini ta’kidlaydi.

“Lug‘ati Navoiy”. 1990 yilda navoiyshunos olima S.G‘aniyeva Tehron universiteti markaziy kutubxonasi bilan tanishish jarayonida fanda ma’lum bo‘lmagan o‘zbekcha - turkcha («Lug‘ati Navoiy») qo‘lyozmani aniqladi. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan bu lug‘at 70 betdan iborat bo‘lib, chiroyli nasta’liq xatida bitilgan. Lug‘at oxirida tuzuvchining ismi sharifi va asar tarixi aniq ko‘rsatilgan: Rajab ibni Muhib Ali. Shomlu. tarixi 1599 yil.

Ushbu lug‘at arab - fors alifbosi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda Alisher Navoiy asarlaridagi mingga yaqin so‘z turkcha, ixcham, sodda izohlangan.

Lug‘at 24 harfga bo‘lingan. Har bir harfga 20 tacha misol keltirilgan.

“Lug‘ati Turkiy”. Boburiylar Hindistonda hukmronlik qilar ekanlar, o‘z ona tili – o‘zbek tillarini imkon boricha saqlab qolishga harakat qildilar. Ular o‘z ona tillarini unutib yubormaslik maqsadida olimlargaga turli qo‘llanma va lug‘atlar tuzishni buyurdilar.

Shoh Jahonning o‘g‘li Avrangzeb buyrug‘i bilan Fazlullaxon Barlos tomonidan tuzilgan «Lug‘ati Turkiy» ham Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Fazlullaxon Barlos lug‘atdagi so‘zlarni joylashtirishda o‘zbek tilining ichki xususiyatlari kelib chiqadi. Fe’llarni 13 harfga, ismlarni 18 harfga bo‘ladi. Arab - fors tillariga xos je, ze, itqi, izg‘i, zod, sod kabi harflar bilan boshlanuvchi so‘zlarga misollar berilmagan.

Lug‘atning I qismida o‘zbek tilidagi so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar haqida umumiyy ma’lumot, II qismida eski o‘zbek tilida ko‘p ishlataligan fe’lllar, III qismida ot turkumidagi so‘zlar, IV qismida qabila, meva, g‘alla, hasharot, hayvonot olamiga oid so‘zlar guruh - guruh qilib berilgan.

“Kelurnoma”. Yuqorida ta’kidlanganidek, Boburiylar davrida turkiy tilini o‘rganishga katta ehtiyoj turli lug‘atlarning yaratilishiga sababchi bo‘ldi. Ana shunday ehtiyoj asosida Abu Muzaffar Muhitdin Avrangzeb (1658-1707 yillar) saroyida xizmat kilgan Muhammad Yoqub Chingiy "Kelurnoma" asarini yaratdi.

Lug‘at 15 bobdan va 332 fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alfaviti asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe’llarni izohlashgan bag‘ishlanadi.

Unda o‘n to‘rt bobda 400 dan ortiq fe’nning yuqoridagi kabi turli xil shakllar paradigmasi beriladi. Natijada uya lug‘atning namunasi vujudga keladi.

Lug‘atning oxirgi bobi mavzuviy-ideografik lug‘atning ilk namunasidir.

“Sangloh”. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha yozilgan lug‘atlarning eng kattasi «Sangloh»dir. Muallifi turkiy xalqlarning afshar urug‘idan chiqqan astrobodlik Mirza Mahdixon. U Eron shohi Nodirshohning kotibi edi. Lug‘at tuzishdan maqsadi shoir

asarlarida uchraydigan qiyin so‘zlar ma’nosini forsiyzabon xalqlarga olib berish edi. Shuning uchun u lug‘atni «Sangloh», ya’ni toshli yer, toshloq deb atadi. Lug‘at 1759 - 60 yillarda yozib tugallangan. Hozircha lug‘atning uch nusxasi aniqlangan, ular Angliya qo‘lyozma xazinalarida saqlanadi. 1960 yili mashhur ingliz olimi Djerard Klossen ushbu lug‘atni turli ko‘rsatkich, sharh va izohlar bilan Londonda nashr qildi. Lug‘atshunos so‘z ma’nolarini ochish uchun asosan Alisher Navoiyning poetik asarlariga murojaat qiladi. Ayrim paytlarda qo‘sishimcha ravishda Bobur, Husayn Boyqaro, Lutfiy kabi shoirlar ijodidan ham misollar keltiriladi. Ushbu lug‘atning boshqa mumtoz lug‘atlardan farqi shuki, «Sangloh»da birinchi marta nasriy asarlardan ham misollar keltirildi.

Lug‘atda Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi juda ko‘p nodir so‘zlar ma’nosini olib berilgan. Bunday so‘zlar boshqa lug‘atlarda uchramaydi. Shulardan biri qadam tashlash, yurish ma’nosidagi mangish so‘zidir. Bu so‘z ma’nosini Mahdixon tarafidan quyidagicha izohlanadi: mangish – nun ustida sukun, forsiy «к» (ya’ni «г») kasrali, ma’nosini xirom va raftor qadam tashlamoq, chunonchi, «Layli va Majnun»da uchraydi: Bir - bir mangishda yuz latofat,
Yo‘q yo‘qki sochib jahonga ofat.

Mahdixon lug‘atning fonetik tuzilishini bayon qilish chog‘ida XVIII asr Astrobod o‘zbeklarining tili haqida noyob ma’lumotlar qoldirgan. Lug‘at ma’lumotlari bu davr tilida 9 ta unli (ulardan 6 tasi fonologik ahamiyatga ega), 28 ta undosh tovush bo‘lganligi haqida gapiradi.

Muallif so‘z ma’nolarini izohlar ekan, ularning ko‘chma ma’nolarini alohida qayd qilib o‘tadi. Chunonchi, etak so‘zini izohlar ekan, uning asosiy ma’nosini forscha doman ekanligini ko‘rsatadi, shu bilan uning majozan tog‘ etagi ma’nosini anglatishini quyidagicha yozadi:

etak - (forscha) ma’nosini doman, arabcha zayl, majozan tog‘ning etagi.

"Sangloh" lug‘atida mo‘g‘ul, fors, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan 970 ga yaqin leksik birliklar mavjud. "Sangloh" lug‘atida muallifning o‘zi tomonidan mo‘g‘ulcha deb belgilangan so‘zlar yuztadan oshadi. Lug‘atda fe’lllar boshqa so‘z turkumlariga nisbatan ko‘prok sarlavg‘a so‘zga chiqarilgan.

Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar ichida "Badoiy al-lug‘at" va "Sangloh" lug‘at tuzish tamoyilining ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida A.Tixonov tomonidan ishlab chikilgan so‘zlarni uyalarga birlashtirish asosida lug‘at tuzish tamoyillari o‘zbek leksikograflari tomonidan XV asrdayoq ishlangan va bu tamoyillar asosida lug‘atlar tuzilgan.

Yuqoridagilardan tashqari Navoiy asarlariga tuzilgan o‘nlab lug‘atlar bor. Ular jumlasiga «Kitobi lug‘ati atrokiya», «Farhangi Hazrati Alisher mullaqab ba al Navoiy» kabi lug‘atlar ham kiradi (Umarov E.A. Eski o‘zbek lug‘atlari. Toshkent, 1992).

Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini o‘qish uchun maxsus lug‘at zarur, chunki eski o‘zbek tili hozirgi o‘zbek adabiy tilidan lug‘at tarkibi jihatidan ham, grammatik qurilishi jihatidan ham sezilarli farq qiladi. Bunday lug‘atlar tuzilgan va nashr etilgan ham. Masalan, P. Shamsiyev va S. Ibrohimovlarning "Navoiy asarlari lug‘ati" (Toshkent, 1972). Bu lug‘at birinchi marta 1953 yilda "O‘zbek klassik adabiyoti asarlarini o‘qish uchun qisqacha lug‘at" nomi bilan nashr etilgan edi. 1983-85 yillarda esa prof. E.I.Fozilov rahbarligida 4 jildli Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati nashr etilgan.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek lug‘atchiligi uzoq tarix va boy an’anaga ega.

XULOSA

O‘zbek lug‘ati asrlar davomida boyib, ba’zi lug‘atlar o‘zgarib, boshqa tillardan ham so’zlar o’zlashgan. Alisher Navoiy o‘z asarlariga juda boy lug‘atdan foydalangan. Alisher Navoiy lug‘atlarini izohlash uchun juda ko’plab asarlar yaratilgan. Lug‘atchilik an’anasi ko’plab yozuvchilar ijodida uchraydi. Lug‘atchilik tarixi bu xalqning ijtimoiy hayoti bilan birgalikda rivojlangan. Lug‘atchilik millatning eng katta merosidir.

ADABIYOTLAR

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. O‘zbek tili va adabiyoti. Jurnal. H.Ne`matov. 1992
4. G'anijon Abdurahmonov "O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi" T-2008
5. U.Tursunov, B.O'rinoev "O‘zbek adabiy tili tarixi" T-1995
6. N.Rahmonov, Q.Sodiqov "O‘zbek tili tarixi" T-2009